TA’LIM JARAYONIGA MUAMMOLI YONDASHUVNING IJTIMOIY AHAMIYATI

Ayubova Saida Musadjanovna
Guliston davlat pedagogika instituti,
“Xorijiy tillar” kafedrasi katta o‘qituvchisi
e-mail: saida.bozorova79@gmail.com
Abduvahobova Maftuna Abdug‘Ani qizi
Guliston davlat pedagogika instituti talabasi
Muhitdinova Nozimabonu Jahongir qizi
Guliston davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim jarayonida muammoli yondashuvning ijtimoiy ahamiyati o‘rganilgan. Muammoli ta'lim usuli o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, mustaqillik va ijodkorlik kabi muhim ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Shuningdek, muammoli yondashuvning ijtimoiy jihatdan ahamiyati, o‘quvchilarni realьnыy hayotdagi muammolarga yo‘naltirish orqali ularning faolligini va ijtimoiy javobgarligini oshirishga hamda ta'lim tizimining samaradorligini oshirishga qaratilganligiga e'tibor qaratilgan. Bu yondoshuv, ta'lim jarayonida o‘quvchilarning ma'naviy, intellektual va ijtimoiy taraqqiyotiga hissa qo‘shadi.

Kalit so‘zlar: ta'lim jarayoni, muammoli yondashuv, ijtimoiy ahamiyat, tanqidiy fikrlash, mustaqillik, ijodkorlik, ta'lim tizimi, faollik, ijtimoiy javobgarlik, samaradorlik.

Annotation: This article explores the social significance of the problem-based approach in the educational process. The problem-based teaching method aims to develop essential skills such as critical thinking, independence, and creativity in students. Moreover, the article emphasizes that the social importance of this approach lies in guiding students toward real-life problems, increasing their engagement and social responsibility, and enhancing the effectiveness of the education system. This approach contributes to students' moral, intellectual, and social development within the learning process.

Keywords: educational process, problem-based approach, social significance, critical thinking, independence, creativity, education system, engagement, social responsibility, effectiveness.

Аннотация: В данной статье изучается социальная значимость проблемного подхода в образовательном процессе. Метод проблемного обучения направлен на развитие у учащихся таких важных навыков, как критическое мышление, самостоятельность и креативность. Также подчёркивается, что социальная значимость данного подхода заключается в ориентации учащихся на реальные жизненные проблемы, повышении их активности и социальной ответственности, а также в повышении эффективности системы образования. Такой подход способствует духовному, интеллектуальному и социальному развитию учащихся в процессе обучения.

Ключевые слова: образовательный процесс, проблемный подход, социальная значимость, критическое мышление, самостоятельность, креативность, система образования, активность, социальная ответственность, эффективность.

Insoniyat jamiyatining hozirgi zamon rivojlanish darajasi mustaqil respublikamiz ijtimoiy hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan tub o‘zgarishlarda o‘z aksini topmoqda. Bunday o‘zgarishlar shak-shubhasiz, barkamol shaxsni tarkib toptirish bilan chambarchas bog‘liq. Aynan ana shu masala "Ta'lim to‘g‘risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturida o‘z aksini topgan. Hozirgi paytda ko‘p mamlakatlar, shu jumladan respublikamiz uzluksiz ta'lim tizimida ham turlicha nomlangan texnologiyalardan foydalanilmoqda. Bu texnologiyalarning barchasi ma'lum umumiylikka ega bo‘lib, ular xususiy jixatlariga binoan tasniflanishi V. S. Kukushin, G. K. Selevko, G. Berdiyev kabi ko‘plab olimlar tomonidan ko‘rsatilgan bo‘lib, ularni sxematik tarzda keltirish ham mumkin (Individual ta'lim texnologiyasi, Jamoaviy ta'lim texnologiyasi, Belgi-kontekstli ta'lim texnologiyasi, Ishbilarmonlik yoki rolli o‘yin ta'lim texnologiyasi, Muammoli ta'lim texnologiyasi...).[1,5]

Ana shu vazifalarni hal etishda muammoli ta'lim texnologiyasi yetakchi o‘rinni yegallaydi. Muammoli ta'lim texnologiyasi juda qadim zamonlardan shakllanib kelmoqda. Jumladan, qadimgi Gretsiyada muammoli savol-javoblar, qadimgi Hindiston va Xitoyda muammoli bahs-munozaralardan keng foydalanilgan. Muammoli ta'limni amerikalik psixolog, faylasuf va pedagog Dj. Dyui 1894 yilda Chikagoda tashkil yetgan tajriba maktabida qo‘llagan. XX asrning 30 - yillarida bu yo‘nalishda tadqiqotlar olib borildi. 70-80-yillarga kelib, amaliyotga keng joriy etildi.[2,3]

Muammoli ta'lim - bu mantiqiy fikrlash jarayoni (tahlil, umumlashtirish va boshqa shu kabilar) va o‘quvchilarning izlanishli faoliyati qonuniyatlarini (muammoli vaziyat, bilishga qiziqish, yehqtiyoj) hisobga olib tuzilgan ta'lim va o‘qitishning ilgari ma'lum bo‘lgan usullarini qo‘llash qoidalarining yangi tizimidir.[4,10]

O‘qitish jarayoniga muammoli o‘qitish texnologiyasini qo‘llash uchun o‘qituvchi quyidagi masalalarni hal qilishi lozim:

1. O‘quv dasturi bo‘yicha mavzularni muammoli dars shaklida o‘tish mumkinligini;
2. Mavzu matnidagi masalalar bo‘yicha muammoli vaziyatni keltirib chiqaradigan savollar, topshiriqlarni aniqlash, bunda didaktikaning ilmiylik, tizimlilik, mantiqiy ketma-ketlik, izchillik printsiplariga amal qilish;

Muammoli ta'lim o‘quvchilarning ijodiy tafakkuri va ijodiy qobiliyatlarini o‘stirishda jiddiy ahamiyatga ega. Muammoli ta'limni amaliyotda qo‘llashda asosiy masalalardan biri o‘rganilayotgan mavzu bilan bog‘liq muammoli vaziyat yaratishdan iborat. Muammoli ta'limning asosiy g‘oyasi bilimlarni o‘quvchilarga tayyor holda berish emas, ular tomonidan dars mavzusiga tegishli muammolar bo‘yicha o‘quvtadqiqotlarini bajarish asosida o‘zlashtirilishini ta'minlashdan iborat.

Demak, muammoli o‘qitishni boshqarish pedagogik mahoratni talab etadi, chunki muammoli vaziyatning paydo bo‘lishi individual holat bo‘lib, tabaqalashtirilgan va individuallashtirilgan yondashuvni talab etadi.[1,9] O‘quv materialini muammoli taqdim yetilishining mohiyati shundaki, unda o‘qituvchi bilimlarni tayyor holda taqdim etmasdan, o‘quvchilar oldiga muammoli masalalar qo‘yadi, ularni yechimining yo‘llari va vositalarini izlashga undaydi. Muammo, yangi bilimlar va harakat usullar sari, o‘zi yo‘lga boshlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azizxo‘jayeva N Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. T:O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti,2006 y160b
2. Abduqudusov O. M. Kasb-hunar pedagogikasi.O‘MKHTTKMO va O‘QTI-2012y
3. Ayubova S.M, & Keldibekova S. K. (2022). The Role of CLIL Technology in Teaching Subjects Using English Language. Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences, 15, 66–68. Retrieved from

4. Аюбова, С. М. (2025). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИИ CLIL НА УРОКАХ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА ДЛЯ СТУДЕНТОВ НЕФИЛОЛОГИЧЕСКИХ НАПРАВЛЕНИЙ. Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari, 17(2), 3-7.
5. Ayubova, S. (2023). CLIL TECHNOLOGY TO DEVELOP STUDENTS' COMMUNICATIVE COMPETENCE IN ENGLISH. Talqin Va Tadqiqotlar, 1(9). извлечено от
6. Ayubova, S., & Kuziyev, S. (2024, май 14). INTEGRATING CLIL IN UZBEKISTAN EDUCATION.